

MA'MURIY TARTIB-TAOMILLAR TO'G'RISIDAGI QONUNNING PRINSIPLARINI QO'LLASH ZARURATI

Y.Saidazimov

Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası

Katta o'qituvchisi yusuf_saidazimov@mail.ru

+998996425295

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10665332>

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekiston-suveren demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekanligi qat'iy belgilab qo'yilganligi xususan, davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerakligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yildi. Konstitutsiyaviy prinsiplar sudlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri qo'llanishi dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Huquqni qo'llash amaliyotida yana keng qo'llanayotgan prinsiplardan biri tinglanish imkoniyatining mavjudligi prinsipi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida "ma'muriy organ manfaatdor shaxsga ma'muriy hujjatni qabul qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha holatlar yuzasidan o'z fikrini bildirish imkoniyatini taqdim etishi shart"ligi belgilab qo'yilgan. Ushbu prinsipga ko'ra ma'muriy organ manfaatdor shaxsga ma'muriy hujjatni qabul qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha holatlar yuzasidan o'z fikrini bildirish imkoniyatini taqdim etishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

"Ma'muriy tartib taomillar to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasida belgilab o'tilgan ishonchning himoya qilinishi prinsipi ham huquqni qo'llash amaliyotida ko'p buzilmoqda. Mazkur prinsipga ko'ra, vijdonan harakat qiluvchi manfaatdor shaxslarning ma'muriy hujjatga bo'lgan ishonchi qonun bilan qo'riqlanadi. Ma'muriy organlar manfaatdor shaxslarning yuzaga kelgan ma'muriy amaliyot bilan bog'liq qonuniy kutilgan natijalarini hurmat qilishi shart. Yuzaga kelgan ma'muriy amaliyotning o'zgartirilishi jamoat manfaatlari bilan bilan oqlangan bo'lishi, umumiy xususiyatga ega va barqaror bo'lishi kerak. Misol uchun Vijdonan harakat qiluvchi manfaatdor shaxs, MCHJ qarorda arizachi taraf hisoblanadi. MCHJ zamonaviy bolalar bog'chasi binosi qurilishi uchun Sergeli tuman hokimiyatiga ariza bilan murojaat qilib, hokim tomonidan uning arizasi o'rganib chiqilib, unga eski hokim tomonidan yer maydoni ajratilgan. Ma'lum muddat o'tgandan keyin tumanga yangi hokim tayinlangan va barcha ajratilgan yer maydonlarini hisobotini yurib, tekshiruv o'tkazadi. Yangi tayinlangan hokimning qarori bilan bino qurish uchun mo'ljallanmagan yerdan ajratilgan degan vaj bilan eski hokimning qarori bekor qilinadi. MCHJ tomonidan bino qurilishi deyarli nihoyasiga etib, binoning ishlashga topshirilishi uchun 20 kun muddat qolgan. Ushbu holatda yangi hokimning xarakatlarini qisqacha muhokama qilish o'rinli. Misol uchun u qanday harakat qilishi lozim edi. Birinchidan, vijdonan harakat qiluvchi manfaatdor shaxslarning ma'muriy hujjatga bo'lgan ishonchi qonun bilan qo'riqlanishi nuqtai nazaridan olib qaralsa, MChJning sobiq hokim chiqargan qaroriga bo'lgan ishonchi natijasida bino qurilib bitkazilib, ishlashi uchun topshirilish arafasida turganligini ko'rish mumkin. Ya'ni vijdonan harakat qiluvchi manfaatdor shaxs sifatida MCHJ qonuniy harakatni amalga oshirgan va jamiyatning yosh qatlami uchun uzoq muddatga foydalanish uchun zamonaviy bolalar bog'chasi tashkil qilgan va tegishli tartibda ishchi o'rinlari tashkil etgan. Ikkinchidan, ma'muriy organlar manfaatdor shaxslarning yuzaga kelgan ma'muriy amaliyot bilan bog'liq qonuniy kutilgan natijalarini

hurmat qilishi shart. Ya'ni ushbu bino qurilishi uchun ajratilgan yer maydonini olishda hokim tomonidan tashkil etilgan komissiya a'zolari tomonidan tegishli tartibda bayonnoma rasmiylashtirilgan va komissiya ishtirokchilari tomonidan ma'muriy hujjat uchun asos vazifasini o'tash uchun xizmat qiladigan bayonnoma imzolangan. Tegishli tashkilotlar vakillari ham ushbu bino ajratilishi jarayonida qatnashgan va binoning foydalanish uchun qayerda qurilishi jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda tegishli yer maydonidan ajratilgan bo'lishi mumkin. Umuman olganda, ushbu holat MTTtQ qabul qilingandan keyin bo'lganligi uchun ham qonunning tegishlicha buzilishlarini ma'muriy organning harakatlarida ko'rish mumkin. Bu ham amaliyotdan olingan misollardan biri.

“Ma'muriy tartib taomillar to'g'risida”gi Qonunning 18-moddasida tekshirish prinsipi xususida quyidagilar keltirib o'tigan: ma'muriy organ ma'muriy ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha haqiqiy holatlarni har tomonlama to'liq va xolisoni tekshirishi shart. Tekshirish prinsipi ma'muriy proseduralarga nafaqat manfaatdor shaxs nuqtai nazaridan, balki eng avvalo ommaviy manfaat nuqtai nazaridan yondashish lozimligini keltirib chiqaradi. Darhaqiqat, manfaatdor shaxs har doim ham o'z manfaatiga zid bo'lgan hujjatlarni ma'muriy organga takdim etmasligi yoki faqat taqdim etilgan hujjatlar doirasida ishni har tomonlama, to'liq va xolisona ko'rishga imkon bo'lmasligi mumkin.

Tekshirish prinsipi aynan mana shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Ish mazmuniga ta'sir etadigan barcha holatlar, jumladan kimningdir foydasiga yoki zarariga xizmat qiladigan holatlarni ham aniqlash “Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi Qonunga ko'ra, avvalo ma'muriy organ zimmasiga yuklatilgan. Ma'muriy organ ushbu vazifasini bajarmaydigan bo'lsa, tekshirish prinsipi talablariga amal qilmagan va uni buzgan bo'ladi hamda buning yuzasidan tegishli huquqiy oqibatlar kelib chiqadi. Tekshirish prinsipi ma'muriy organga ma'muriy ishning barcha holatlarini batafsil o'rganish va asoslantirilgan adolatli qaror chiqarish majburiyatitni xizmat burchiga ko'ra yuklagan holda oqilona huquqni qo'llash g'oyasini mantiqiy yakuniga yetkazishni nazarda tutadi. Zarurat bo'lganda, ma'muriy organ manfaatdor shaxslar tomonidan taqdim etilgan dalillar bilan cheklanmasdan, to'g'ri qaror qabul qilish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda o'z tashabbusi bilan qo'shimcha dalillar yig'ishga haqli. E'tiborli shundaki, MTTQ ga ko'ra, mutanosiblik, qonuniylik, tenglik va boshqa ma'muriy tartib-taomillarga rioya qilib qabul qilingan qaror to'g'ri qaror hisoblanadi.

Ma'muriy ish yuritish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan ta'sir choralari ma'muriy organ tomonidan ko'zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va yetarli bo'lishi lozim. Shuningdek, ma'muriy organlar manfaatdor shaxslarning yuzaga kelgan ma'muriy amaliyot bilan bog'liq qonuniy kutilgan natijalarini hurmat qilishi va himoya qilishi shart. Umuman olganda, ma'muriy tartib-taomillarning prinsiplarini qo'llash masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Ma'muriy hujjatlar va ma'muriy harakatlar ma'muriy tartib-taomillarning prinsiplariga muvofiq bo'lishi lozim. Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplariga nomuvofiqlik ma'muriy hujjatlarning va ma'muriy harakatlarning bekor qilinishiga yoki qayta ko'rib chiqilishiga olib keladi.

References:

1. Бархар С.М., Хазанов С.Д. Формы и методы деятельности государственной администрации Екатеринбург, 1997, с. 7. 9 Бархар С.М. Хазанов С.Д. Формы и методы

астивитй оф тхе стате администратион. Йекатернбург, 1997, п. 7.0.

2. Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник. 3-е изд. – М., 2007. – С.32.(Бакхракх Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Й.Н. Административе Лав: Зрд Техтбоок. М, 2007. – П.32)
3. Маурер Н. Аллгемеинес Вервалтунгсречт. Верлаг С.Х. Беск, Мюнхен, 2009. С. 193, 194.; Кристине Коре-Перконе. Признаки административного акта: в понимании Административно-процессуального закона Латвии и практики судов // Ежегодник публичного права 2016: Административный акт. Москва: Инфотропик Медиа, 2015. С. 49
4. Ж. Нематов. Импровемент оф Административе Проседурес ин тхе Републис оф Узбекистан: Административе анд Легал Фрамеворк: Сомпаративе-Легал Анайсис: Техтбоок-Т.; 2015.П.86.
5. Саидазимов Юсуф (2020). Теоретический и правовой анализ административных документов. ревиеш оф лав ссиенсес, 3 (спецвыпуск),19-24. дои: 10.24412/2181-919х-2020-3-19-24 (саидазимов юсуф (2020). тхеоретисал анд легал анайсис оф административе досуменц. Ревиев оф лав ссиенсес, 3 (Спесиал иссусе),19-24. дои: 10.24412/2181-919X-2020-3-19-24.
6. Сардорбек Й. Анайсис оф проблемс ин тхе просесс оф парламентарй сонсидератион оф бюджет ехесутион репорц ин узбекистан //Берлин Студиес.
7. Хамедов И.А., Хван Л.Б., ТСай И.М. Кўрсатилган асар Сс. 296-300. (Хамедов И.А., Хван Л.Б., ТСай И.М.Шown work. Пп. 296-300.
8. Ўзбекистон Республикасининг замонавий маъмурий ҳуқуқи ва оммавий бошқаруви бўйича 100 та долзарб саволга жавоблар. Ўқув қўлланма. Масъул муҳаррир: А. Эгамбердиев. Муаллифлар: Р. Мельник, А. Эгамбердиев, Ж. Сотиболдиев. – Тошкент, “Нисо Полиграф”, 2023. – 232 б.
9. Маъмурий акт (ҳужжат) ҳуқуқий тоифа сифатида – Ю.Саидазимов. “ОДИЛЛИК МЕЗОНИ” илмий-амалий, ҳуқуқий журнали 2023-й